

**BOSHLANG' SINF O'QUVCHILARIDA INTIZOM VA TARTIBNI SHAKLLANTIRISH.**

Abduraxmonova Muazzamxon Umidjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti, Pedagogika - psixologiya va
san'atshunoslik fakulteti, 3 - bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17628683>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizom va tartibni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Unda

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, intizom, tartib, ta'lim, o'yin-uslubiy mashg'ulotlar, ota-onalar bilan hamkorlik, o'qituvchi, shaxsiy rivojlanish, mas'uliyat, tarbiya

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Aynan shu yoshda bolada intizom va tartib tushunchalari shakllanadi. Intizom – bu o'quvchining ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashuvi, o'qituvchi va jamoat oldidagi xatti-harakatlarini nazorat qila olishdir. Tartib esa shaxsiy va umumiy tartib qoidalarga rioya qilishdir. Bu ikkala xususiyat bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim davrida intizom va tartibni shakllantirish – bu nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil etadi, balki kelajakda o'quvchining shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyatga erishishning kalitidir.

Asosiy qism .

Boshlang'ich sinf – bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim bosqichdir. Vygotskiyning(1984) fikricha aynan byu yoshda bolaning psixik jarayonlari, xulq-atvor namunalari va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Elkonin(1991) ta'kidlashicha, 6-10 yoshdagi bolada oldindan rejalashtirish, impulslarni nazorat qilish va ijtimoiy rolni anglash qobiliyati hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli, intizom va tartibni shakllantirish buyruq va ta'kid emas, tushuntirish, ta'lim va o'yin orqali amalga oshirilishi kerak.

1. Psixologik tayyorgarlik va yosh xususiyatlari.

Islom Karimov ta'kidlaydiki, yuqori ma'naviyatli jamiyat shakllantirish uchun bolalarda intizom va mas'uliyat hissini erta yoshdan boshlab tarbiyalash lozim. Vygotskiy bolaning Yaqin rivojlanish zonasi kontseptsiyasiga asosan, intizomni katta yordamchi (o'qituvchi, ota-ona, katta o'quvchi) orqali birga bajarish orqali shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar juda o'rinli, chunki, bolaga biror narsani o'rgatishda qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi natijalarga erishiladi. Qilingan harakat ham samarali bo'ladi. Bolaga biror narsani o'rgatishda namuna ko'rsatish, namuna bo'lish ham juda samarali natijalarga olib boradi.

Shu o'rinda Vygotskiyning yana bir fikrini keltirish o'rinli bo'ladi:

“Bolaning xulq-atvori uning o'zi bilan tug'ilmaydi, balki uning o'rganilgan ijtimoiy tajribasi natijasida shakllanadi”.

Hqiqatdan ham xuddi shunday, hech qaysi bola xulq-atvor bilan tug'ilmaydi, bolaning xulq-atvori, ma'lum bir vaqt davomida, turli ta'sirlar natijasida shakllanadi. Misol uchun oiladagi muhit, yaqin insonlar davrasi, ba'zi ehtiyojlar.

2.O'yin va ta'lim texnologiyalari

Esemuratova ta'kidlaydiki, innovatsion o'yinlar orqali bolalarda tartib, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'lib, o'yin faoliyatidan endigina ta'lim faoliyatiga o'tayotgan bo'ladilar. Bu jarayonda ularga o'yin orqali ta'lim, tarbiya berish ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'yin va ta'lim texnologiyalaridan ko'proq vizual vositalardan foydalanish samarali bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida eshitganini eslab qolish qobiliyati uncha yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, ularda asosan ko'rish orqali eslab qolish yaxshiroq rivojlangan bo'ladi. Dars davomida turli tushunchalar berayotganda o'sha tushunchalarga mos vizual ko'rgazmalardan foydalanish dars sifatini va tushunchaning yanada tushunarli bo'lishini ta'minlabgina qolmay tushunchaning o'quvchining xotirasida yanada mustahkam va uzoq muddatga qolishini ta'minlaydi.

3. O'qituvchi – asosiy rol

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tartib va intizomni shakllantirishda asosiy rolni o'qituvchi o'ynaydi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari kunning asosiy qismini o'qituvchilari, aynan sinf rahbari bilan o'tkazadilar. Bu jarayonda ularga katta ta'sir o'tkazadigan inson ham aynan sinf rahbari hisoblanadi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchilariga boshqalarga qaraganda nisbatan itoatkor bo'ladilar.

Shu o'rinda yana shuni aytib o'tish kerakki, o'qituvchi o'quvchilarda tartib va intizomni shakllantirish jarayonida shaxsiy namuna bo'lib, o'quvchilariga aytgan har bir narsani, odatni o'zida mujassam etmog'i zarur. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish uchun qilinadigan ishlar samarali bo'ladi.

Misol uchun, maktab formasini olaylik, o'qituvchi o'quvchilarga hadeb forma kiyishlarini aytsa-yu o'zi o'qituvchi formasida bo'lmasa. Bunda o'quvchilarda mantiqsizlik kelib chiqadi. Agarda o'qituvchi o'zi formada bo'lib, shaxsiy namuna ko'rsatsa, ijobiy natijaga erishiladi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik:

Qosimova va Matjonov o'tkazgan tajriba natijasida, yani ota-onalar bilan doimiy aloqa olib borilgan sinflarda intizom buzilishi 34% ga kamaygan, o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarni vaqtida bajarish ko'rsatkichlari 62% ga oshgan.

Ota-onalar bilan muntazam feedback intizomni maktabdan tashqari ham saqlab turishga yordam beradi. (Karima Qosimova)

Boshlang'ich ta'limda ota-onalar hamkorlik juda muhim hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining eslab qolish qobiliyatlari sust rivojlangan bo'ladi. Kun bo'yi o'qituvchisi o'rgatgan, aytgan narsalar kechga borib yodlaridan ko'tariladi. Buning oldini olish uchun esa ota-onalar bilan hamkorlik juda foydali bo'ladi. O'rganilgan ma'lumotlar yodlarida yaxshi saqlanib qolishi uchun ota-onalar kechasi vaqtlarini ajratib farzandlari bilan shug'ullanishlari, dars tayyorlashlari kerak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarga ham kognitiv ham hissiy tomondan rivojlanishlariga zamin yaratadi. Birga dras tayyorlash ham qiziqarli bo'ladi, ham bola bilan uning ota-onasi o'rtasidagi hissiy bog'lanish kuchayadi.

Xulosa:

Boshlang'ich sinflarda intizom va tartibni shakllantirish ta'lim jarayonining eng muhim omillaridan biridir. Dastlabki sinflardanoq o'quvchilarda tartib, mas'uliyat, o'zini boshqara olish, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat kabi ko'nikmalarni shakllantirish kelgusida ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va jamiyatda o'z o'rnini topishga mustahkam zamin yaratadi.

Intizomni ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi, rag'batlantirish usullarida to'g'ri foydalanishi, dars jarayonini qiziqarli va faol o'tkazishi katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim bosqichida intizom va tartibni to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki barkamol, mas'uliyatli va ongli shaxsni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent; Ma'naviyat, 2008.
2. Qosimova K., Matjonov S. Bolalar tarbiyasida ota-onalarning va o'qituvchi hamkorligi. NamDU ilmiy xabarnomasi, 2024.
3. Esemuratova T. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy tarbiyani o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. Inlibrary, 2024.
4. Ibodullayeva D., Ollaqulova D. Boshlang'ich sinf tarbiyasi; nazariya va amaliyot. Journals.uz, 2020.
5. Vygotskiy L. S. Psixologiya boshlang'ich maktab bolasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
6. Elkonin D. B. Bolalar psixologiyasi - Toshkent: O'qituvchi, 1991.